

## KATTA YOSHDAKI AYOLLAR UCHUN KIYIM ASSORTIMENTIGA ISTE'MOLCHILARNING EXTIYOJLARINI O'RGANISH

Yusupova Dilfuza Ubaydulloevna

Assistant , Farg'ona politexnika instituti, "Yengil sanoat texnologiyalari va to'qimachilik" fakulteti, "Yengil sanoat texnologiyalari" kafedrasi

Butayeva Nilufar Tolibjon qizi

"Yengil sanoat texnologiyalari" kafedrasi, M21-21 guruh magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7298736>

**Annottatsiya.** Ushbu maqolada Yoshi katta ayollarning kiyim assortimentiga iste'molchilarning extiyojlarini aniqlash. Yoshi katta ayollar eng ko'p qaysi kiyimni kiyishlari va ularning yelkali kiyimlari qomatda qanday shakl xosil qilishi bo'yicha diagramma Kiyim xarid qilish joyining ayollar yosh bo'yicha taqsimlanishi hamda kiyimlari assortimentlari marketing tahlillari asosida, ularda qo'llanilayotgan gazlamalar turlari, hom-ashyosi tarkibi, liboslarda qo'llaniluvchi bezaklar o'rganilib, yangi model uchun dastlabki loyihalash ishlari bajarilgan.

**Kalit so'zlar:** trikotaj, respondent, model, analiz, trikotaj, kombinatsiya, hom-ashyo, model, mustahkamlik, marketing, brend, furnitura.

## ИЗУЧЕНИЕ ПОТРЕБНОСТЕЙ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В АССОРТИМЕНТЕ ОДЕЖДЫ ДЛЯ ПОЖИЛЫХ ЖЕНЩИН

**Аннотация.** В данной статье определены предпочтения потребителей к ассортименту одежды женщин старшего возраста. Диаграмма того, какую одежду чаще всего носят пожилые женщины и как плечевая одежда формирует фигуру. Распределение женской одежды по возрасту и ассортименту одежды на основе маркетингового анализа, видов тканей и используемых в них материалов. Состав, были изучены украшения, использованные в платьях, и завершены предварительные работы по дизайну новой модели.

**Ключевые слова:** трикотаж, респондент, модель, анализ, вязание, комбинация, сырье, модель, прочность, маркетинг, бренд, фурнитура.

## STUDYING THE NEEDS OF CONSUMERS IN THE RANGE OF CLOTHING FOR OLDER WOMEN

**Abstract.** This article defines consumer preferences for the range of clothing for older women. Chart of what clothes are most often worn by older women and how shoulder clothes shape the figure. Distribution of women's clothes by age and range of clothes based on marketing analysis, types of fabrics and materials used in them. Composition, decorations used in dresses were studied, and preliminary work was completed on the design of the new model.

**Keywords:** knitwear, respondent, model, analysis, knitting, combination, raw materials, model, strength, marketing, brand, accessories.

### KIRISH

Iste'molchilarning miqdoriy va sifat jihatidan ortib borayotgan talablari bilan bog'liq holda, kiyim-kechakning maqsadli dizayni tikuvchilik korxonalarining muvaffaqiyatlari mavjud bo'lishining eng muhim shartidir. Kiyim dizaynining maqsadli yo'nalishi manzilni aniqlash va uning kiyimdag'i ehtiyojlari va afzalliklarini qondirish orqali amalga oshiriladi.

Iste'molchining ehtiyojlarini eng yuqori darajada qondirish uchun korxonalarining strategik qarori savdo bozorini narx segmentlariga ajratishdan iborat. Jahon moda sanoati dizaynerlik va ommaviy bozor brendlardan iborat bo'lib, ular narxlari va iste'molchilar holati bilan ajralib turadi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Katta yoshli ayollar uchun mavsumiy sanoat kollektsiyalarini shakllantirish jarayoni quyidagi vazifalarni ketma-ket hal qilish orqali amalga oshiriladi:

- katta yoshli iste'molchilarning kiyim-kechak turlaridan qoniqishini o'rganish;
- yoshi katta iste'molchilarning ideal shkaf haqidagi tasavvurlarini o'rganish;
- moda tendentsiyalarini ko'rib chiqish va ularni yoshi katta iste'molchiga nisbatan moslashtirish;
- yoshi katta iste'molchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda sanoat kollektsiyasining tuzilishini ishlab chiqish;
- yoshi katta ayollar uchun sanoat kollektsiyalarining badiiy dizaynining matematik modelini ishlab chiqish

Tadqiqotning birinchi bosqichi iste'molchining ishlab chiqaruvchilar tomonidan mavsumiy kollektsiyalarda taqdim etilgan kiyim-kechaklardan qoniqish darajasi to'g'risida ma'lumotlarni olishdir. Tadqiqot uchun biz katta yoshdagagi ayollarning kiyim-kechak assortimenti va sifati, talablari, garderoblerini tarkibi haqidagi ma'lumotlari aniqlash tadqiqotda ilgari surilgan masaladir. Tadqiqotda "yoshi katta ayollar" deb nomlangan guruh oqilona ishtirok etgan." Yoshi katta ayollar " (50-70 yoshli ayollar, ijtimoiy faol va yangi kiyim sotib olish uchun etarli mablag'ga ega). Yoshi katta ayollarning kiyim-kechak turlaridan qoniqish darajasini o'rganish uchun so'rovnomasini ishlatilgan. Ushbu usul to'g'ridan-to'g'ri muloqot orqali iste'molchining fikri va kayfiyatini aniqlash uchun eng ko'p qirrali, samarali va keng tarqalgan. Ushbu turdagagi tadqiqotlarni o'tkazish qoidalariga muvofiq, respondentlar rejalashtirilgan ob'yektning barcha muhim toifalarini aks ettirishi kerak, shuning uchun har xil ijtimoiy, moddiy va madaniy holatdagi ayollar respondent sifatida jalb qilingan. So'rov Farg'on, Samarqand, Buxoro, Jizzax va Marg'ilondagi savdo markazlarida o'tkazildi. Hammasi bo'lib 50-70 yoshdagagi 350 kishi bilan suhbat o'tkazildi. Ularning barchasi O'zbekiston aholisi. Guruhga nafaqaxo'rlar, ishlaydigan, tadbirkor, shifokor, o'qituvchi ayollar, shu bilan uy bekalari ham kiradi. Respondentlar orasida 182 kishi oliy ma'lumotga ega, 117 kishi- o'rta kasbiy va 51 kishi oliy va o'rta ma'lumotga ega emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, respondentlar hanuzgacha kiyim-kechak modasiga qiziqishlarini davom ettirmoqdalar. So'rov o'tkazayotganda, suhabatdosh respondentlarga og'zaki savollar ham berib o'tdik masalan aynan nima uchun bunday kiyinish uslubidasiz? Ular diniy e'tiqodlari, mintaliteti, isteqomat qilayotgan hudlaridagi urf-odat an'analariga muvofiq va shularni hisobga olgan va tayangan holda kiyinishlarini ba'zilari ish faoliyatidan kelib chiqib, ba'zi repsodentlar esa o'zlari uchun qulay bo'lgan zamonaviy kiyimlarni bir-biriga moslashtirib kiyishlarini takidlardilar.

## TADQIQOT NATIJALARI

Katta yoshli iste'molchilar tomonidan sport va dam olish uchun foydalananiladigan kompression trikotaj mahsulotlarining hissasi muxim axamiyat kasb etadi. Katta yoshdagagi iste'molchilar uchun sport va dam olish amaliyotlarida ko'proq qulaylik yaratish va

jarohatlarning oldini olish uchun yuqori tanani qo'llab-quvvatlovchi kiyimni loyihalash maqsadida siqilgan trikotaj matolari tavsiya etiladi. Katta iste'molchilar uchun moslashtirilgan trikotaj sport va dam olish kiyimlari dizaynini o'rganish ushbu aniq aholi uchun salomatlik va farovonlik holatining jismoniy va psixologik qulayligini yaxshilashga qaratilgan. Yuqori tanani qo'llab-quvvatlash uchun ayollar kiyimlari katta iste'molchilar talabi nuqtai nazaridan ko'proq mos keladi va ko'p tarmoqli tadqiqot guruhi tomonidan taqdim etilgan ko'plab yangiliklarni hisobga olgan holda, turli xil variantlar mavjud. teksturalar, sirtlar, xususiyatlar, estetik va funksional natijalar uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Trikotaj mahsulotlarining qismlari mashinadan deyarli tayyor holda chiqadi.

### MUHOKAMA

Katta yoshli ayollarning qaysi kiyim turiga ehtiyojlari ko'proq ekanligini bilish maqsadida ularning tez-tez qaysi kiyimni eng ko'p sotib olishlari tahlil qildik. Unga ko'ra: 34% kundalik ish kiyimlarini, 15% tantanali ya'ni marosi va to'ylar uchun, 8% kundalik harakatlari uchun qulayroq bo'lishi maqsadida sport kiyimlarini, 23% asosan nafaqadagilar kundalik uy kiyimlarini, 9% maxsus diniy kiyimlarni, 10% ayollarimiz esa milliy kiyimlarni sotib olishlarini takidlashdi.

### 1-rasm.

Yoshi katta ayollar eng ko'p qaysi kiyimni kiyishlari bo'yicha diagramma




Katta yoshdagagi ayollarimiz asosan yosh o'tishi sari qomatda o'zgarish yani Ko'krak aylanasi, bel aylanasi, bo'ksa aylanasida o'zgarishlar ko'krak va qorinn qismidagi osilib qolishlar, bo'ksa aylanasini kattalashib ketishini qomatda turli xil noperametrik o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Shuning uchun katta yoshli ayollarimiz yelkali kiyimlarni qomatda qanday shakl(kiyim siluyeti) hosil qilishini tanlashda albatta Yoshi, o'z qomat shaklidan, turidan kelib chiqib 22% to'g'ri, 35% sal yopishgan, 11% yopishgan, 30% trapettsiya, 2% ovval siluyetda kiyinishni maql ko'rishlari.

Shakl va kesimni tanlashdagi cheklolvar detallarning o'ziga xosligi, turli xil tugatish detallari bilan qoplanadi. Keksa ayollarning didining o'ziga xos xususiyati ularning yoqalar, manjetlar, cho'ntaklar, qo'shimchalar, asl shakllar kamarlariga, ehtiyyotkorlik bilan ishlov berishidadir.

**2-rasm.**

*Yoshi katta ayollar yelkali kiyimlar qomatda qanday shakl xosil qilishi bo'yicha diagramma*

**Yelkali kiyimlar qomatda qanday shakl  
xosil qilgani ma'qul (kiyim silueti)  
foizlarda**



## XULOSA

Xususiyatlar kombinatsiyasining bir o'lchovli taqsimoti olindi. (1-rasm) bundan ko'rinish turibtiki 34% kundalik ish kiyimlarini, 15% tantanali ya'ni marosi va to'ylar uchun, 8% kundalik harakatlari uchun qulayroq bo'lishi maqsadida sport kiyimlarini, 23% asosan nafaqadagilar kundalik uy kiyimlarini, 9% maxsus diniy kiyimlarni, 10% ayollarimiz esa milliy kiyimlarni sotib olishlarini aniqlandi. Yoshi katta ayollar yeng ko'p qaysi kiyimni kiyishlari bo'yicha yoshi, o'z qomat shaklidan, turidan kelib chiqib 22% to'g'ri, 35% sal yopishgan, 11% yopishgan, 30% trapettsiya, 2% ovval siluyetda kiyinislari aniqlandi.

## REFERENCES

1. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).
2. Analysis of the development of older women's clothing of different subcultures (On the example of muslim women's clothing) SM Husanqizi, YD Ubaydulloevna, HJ Valiyevich - Asian Journal of Multidimensional Research, 2021
3. Asian Journal of Multi dimensional Research (ADouble Blind Refereed& Peer Reviewed International Journal)DOI: WAYS TO SOLVE PROBLEMS IN THE PRODUCTION OF KNIT WEAR M. M. Ulugboboyeva\*; X.Sh.Tursunova\*\*  
<http://tarj.in/images/download/ajmr/AJMR-SEPTEMBER-2021-FULL-JOURNAL.pdf>
4. ANALYSIS OF WOMEN'S CLOTHES SEWING - A STUDY TO DEVELOP A NORM OF TIME SPENT ON THE TECHNOLOGICAL PROCESS OF KNITTING PRODUCTION Tursunova Xilola Shuxratjon qizi, Mamatqulova Saida Raxmatovna <https://sciencebring.com/index.php/ijasr/article/view/31> <https://doi.org/10.37547/ijasr-02-03-03>
5. Sovridanova Mohidil Husan qizi, Yusupova Dilfuza Ubaydulloevna, Katta yoshdag'i ayollar kiyimlariga bo'lgan talablarni aniqlash Eurasian journal of academic research,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5813456>, Volume 1 Issue 9, December 2021,ISSN 2181-2020

6. M.X. Sovridinova D. U.Yusupova., Qodirova D.K., Nigmatova F.U. Muslim Clothing As A Sign Of A, Separate Subculture Of Older, Women, The american journal of Engineering and Technology 03.05.2021 yil.
7. O 'ZBEKISTONDA KEKSAYGAN AYOLLAR UCHUN KIYIM-KECHAK DIZAYNIDAGI HOZIRGI DAVLAT VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI DU Yusupova, MX Sovridinova - Archive of Conferences, 2020
8. "CORELDRAW" DASTURIDA KATTA YOSHLI AYOLLAR PALTOSINI ESKIZ MODELINI AVTOMATLASHTIRILGAN LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH TADBIQI DU Yusupova, NB qizi Isroilova - Results of National Scientific Research, 2022
9. KATTA YOSHDAGI AYOLLAR KIYIMLARIGA BO'LGAN TALABLARNI ANIQLASH MH Sovridinova, DU Yusupova - Eurasian Journal of Academic Research, 2021